



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **INGLIZ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA GENDER TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI VA XRONOLOGIYASI**

**Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi**  
Oriental universiteti, (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tilshunosligida gender tadqiqotlarining shakllanishi, nazariy asoslari hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Gender lingvistikasining defitsit, dominantlik, farqlilik va dinamik konstruktiv nazariyalari yoritilib, ularning til va nutqdagi gender xususiyatlarini izohlashdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida gender masalasining o‘rganilish tarixi, genderni ifodalovchi lisoniy vositalar va zamonaviy gender tadqiqotlarining istiqbolli yo‘nalishlari tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari genderning til tizimi va diskursdagi namoyon bo‘lish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** gender lingvistikasi, gender tadqiqotlari, antropotsentrik tilshunoslik, gender stereotiplari, diskurs, gender konsepti, nutq, ingliz tili, o‘zbek tili, lingvomadaniyatshunoslik.

## **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ХРОНОЛОГИЯ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ**

**Ташпулатова Ширина Зиёвиддин кизи**  
Университет Oriental, (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются теоретические основы, этапы становления и развития гендерных исследований в английском и узбекском языкознании. Особое внимание уделяется дефицитной, доминантной, различительной и динамической конструктивистской теориям гендерной лингвистики, а также их роли в объяснении гендерных особенностей языка и речи. Кроме того, анализируются история изучения гендерной проблематики в узбекском языкознании, языковые средства выражения гендера и перспективные направления современных гендерных исследований. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию механизмов репрезентации гендера в языковой системе и дискурсе.

**Ключевые слова:** гендерная лингвистика, гендерные исследования, антропоцентрическая лингвистика, гендерные стереотипы, дискурс, гендерный концепт, речь, английский язык, узбекский язык, лингвокультурология.

## **THEORETICAL FOUNDATIONS AND CHRONOLOGY OF GENDER STUDIES IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS**

**Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi**  
Oriental University, (PhD)

### **Abstract**

This article examines the theoretical foundations, historical development, and major stages of gender studies in English and Uzbek linguistics. Particular attention is paid to the deficit, dominance, difference, and dynamic constructivist theories of gender linguistics and their role in explaining gender-related features of language and speech. The paper also discusses the emergence of gender studies in Uzbek linguistics, linguistic means of expressing gender, and contemporary trends in gender-oriented research. The findings contribute to a better understanding of the mechanisms through which gender is represented in language systems and discourse.

**Keywords:** gender linguistics, gender studies, anthropocentric linguistics, gender stereotypes, discourse, gender concept, speech, English language, Uzbek language, linguoculturology.

Tilning vazifalarini ijtimoiy muloqot bilan cheklamasdan, milliy madaniyat, xalqlar va alohida shaxs dunyoqarashi, ruhiyati, madaniyati, tarixiy-siyosiy jarayonlar in'ikosi deb baholaydigan antropotsentrik lingvistika "inson va til" munosabatini tadqiq etar ekan, lisoniy birliklarning mazmun-mohiyatini bilish jarayoni, tajriba va tashqi muhit bilan bog'liq holda izohlaydi. Struktur-substansial tilshunoslik o'rnida antropotsentrik yondashuvlarning ommalashuvi tilning ichki tizimi va tarkibi bilan cheklanmasdan, uni bevosita qo'llovchi shaxs omili bilan birga tahlil qilish zaruratidan kelib chiqdi. Ushbu

yoʻnalishning kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik hamda pragmalingsvistika kabi tarmoqlari insonning nutqiy faoliyatini milliy tafakkur, konseptual dunyoning lisoniy tasviri, kommunikativ xulq, zamon, makon va vaziyat prizmasida tadqiq etadi. Ilm-fan raqamlashtirish va texnologik taraqqiyot bosqichiga oʻtgan bugungi kunda ham ushbu tarmoqlardagi lingvistik muammolar oʻz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zero, lisoniy birliklarning nutqiy voqelanish xususiyatlarini aniqlash, izchil tartiblash va muayyan qonuniyatlarni belgilash endilikda inson va texnologiya orasidagi muloqotni takomillashtirishga yoʻnaltiriladi.

Antropotsentrik tilshunoslik doirasida shakllangan gender lingvistikasi inson omilini markazlashtirgan holda til va nutqni tavsiflovchi muhim yoʻnalishlardan biridir. Bunda nutqning gender xoslanishi, muayyan jamiyatlardagi genderga oid stereotiplarning nutqda, lisoniy tizimda aks etishi kabi masalalar tadqiq etiladi. Ushbu yoʻnalish oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab oʻziga xos muammolar doirasi belgilangan, tadqiq obyekti aniqlangan mustaqil tarmoq sifatida shakllana boshladi. Maʼlumki, “gender” istilohi biologik jinsdan farq qilib, unda jamiyatda shakllangan ijtimoiy-madaniy rol, obraz va muayyan stereotiplar jamlanadi. Nutq amalda shu tushuncha, tasavvur va qarashlarni mustahkamlash yoki oʻzgartirish vazifasini bajaradi. Sotsiolingsvistika, pragmalingsvistika, lingvomadaniyatshunoslik, matn va diskurs tahlili kabi yoʻnalishlar kesimida turgan ushbu hosila boʻgʻin, yaʼni gender tilshunosligi til birliklarida gender ifodasini aniqlash, erkak va ayol nutqining kommunikativ xususiyatlarini belgilash, stereotiplarning nutqiy ifodalanishini tavsiflash asnosida tilning antropotsentrik mohiyatini ochib beradi. Tarmoq shakllangandan buyon to hozirgi kunga qadar ingliz tilshunoslari toʻrt yirik nazariyani bosqichma-bosqich tatbiq etishdi.

1-jadval

**Ingliz gender tilshunosligining nazariy taraqqiyot bosqichlari**

NAZARIYA	MAZMUNI	ASOSIY VAKILLARI
<b>Defitsit nazariyasi</b>	Ayollar nutqi erkaklar nutqiga nisbatan kuchsiz, aksariyat hollarda aniq maqsadlar koʻzlanmaydi, ushbu nutqning hissiy-tasviriy boʻyoqdorligi kuchli.	Robin Lakoff, Otto Jespersen
<b>Dominantlik nazariyasi</b>	Til va nutqda gender tengsizligi aks etadi hamda erkaklar nutqi kommunikativ samaradorligi nuqtayi nazaridan ustun hisoblanadi.	Dale Spender, Pamela Fishman, Don Zimmerman
<b>Farqlilik nazariyasi</b>	Erkak va ayollar turli kommunikativ madaniyat vakillari boʻlib, nutqiy tafovutlar ijtimoiy omillar bilan izohlanadi.	Deborah Tannen, Jennifer Coates, John Gumperz
<b>Dinamik konstruktiv nazariya</b>	Nutqning gender xoslanishi – muloqot jarayonda shakllanuvchi ijtimoiy hodisa.	Judith Butler, Deborah Cameron, Michel Foucault, Penelope Eckert

XX asr davomida oʻzbek tilining formal-struktur tabiati boʻyicha xulosalar tizimlashtirildi. Yangi ming yillik boshida oʻzbek tilshunosligi ham antropotsentrik paradigmaga kirib kelib, til, milliy mentalitet va ijtimoiy muhit munosabatlarini markaziy tadqiq obyektiga aylantirdi. Til insonning dunyoni idrok etish hamda konseptualashtirish vositasi deb talqin qilina boshlandi. Ammo shu davrga qadar gender masalasiga oʻzbek tilshunosligida mustaqil ilmiy muammo sifatida qaralmagan. Dastlab til meʼyorlarini belgilash, soʻng grammatik va leksik tarkibni tasniflash hamda tavsiflash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratildi. Bu davrda tilning gender xoslanishi, erkak va ayol nutqining farqi, gender stereotiplarining nutqda aks etish mexanizmlari ilmiy muhokamaga olib chiqilmadi.

Jahon tilshunosligidagi antropotsentrik yondashuv va yangi tarmoqlar taʼlimoti oʻzbek tilshunosligiga mustaqillik davrida kirib kela boshladi. Pragmalingsvistika, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik kabi fanning yangi tarmoqlari ommalashib bordi va oqibatda tildagi gender masalasi ham kun tartibiga chiqdi. Dastlab antropotsentrik paradigma shakllanishida metodologik asos sifatida Sh. Safarovning pragmalingsvistika va kognitiv tilshunoslikka oid ishlari, N. Mahmudovning til va nutq haqidagi nazariy qarashlari, D. Xudoyberganovanning lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarini sanab oʻtish joiz. Shu va boshqa tadqiqotlarda oʻzbek tilining asosiy ijtimoiy kategoriyalari tavsiflanadi, mavjud xulosalarga tayanib, quyidagi antropotsentrik xususiyatlarni belgilash mumkin:

2-jadval

Ingliz tilshunosligida gender tadqiqining antropotsentrik xususiyatlari

ANTROPOTSENTRIK XUSUSIYAT	TAVSIFI	O'ZBEK TILIDAN MISOLLAR
Nutqda qarindoshchilik rishtalarini ifodalaydigan murojaat birliklari ustunlik qiladi	Nutqda yosh, mavqe, qarindoshlik va hurmat kategoriyalari aks etadi.	<i>aka, opa, tog'a, amaki, xola</i>
Ijoiy muloqot munosabati o'rnatishga yo'naltirilganlik	Salomlashish, duo, tilak va hurmat ifodalovchi birliklar faol qo'llanadi.	<i>"Assalomu alaykum", "Xudo xohlasa", "Omin", "Yaxshi yuribsizmi?"</i>
Emotsional-ekspressivlik	Til birliklari orqali insonning hissiy holati ifodalanadi.	<i>-jon, -gina, voy, ibi, ehhey</i>
Gender xoslanish	Erkak va ayol nutqidagi pragmatik tafovutlar mavjud.	<i>ayollar nutqida yumshoqlik; erkaklar nutqida qat'iyat</i>
Paremiologik antropotsentrizm	Maqol va matallarda insoniy munosabatlar markaziy o'rinda turadi.	<i>Yaxshi gap jon ozigi, kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda</i>
Milliy konseptlarning mavjudligi	Til milliy tafakkurga xos konseptlarni shakllantiradi.	<i>andisha, or, uyat, oqibat, mehmondo'stlik</i>
Pragmatik yumshatish va implikatura	Salbiy munosabat va salbiy fikrni to'g'ridan to'g'ri aytish o'rniga sha'ma, nasihat ko'rinishida ifoda qilish.	<i>Hammaga insof bersin, gap egasini topadi, hammaniki o'ziga oy ko'rinar ko'ziga</i>

Anglashilganidek, har bir nazariy yondashuvda gender va til munosabati talqini sezilarli darajada tavsiflaydi. Jaspersenga ko'ra, ayollar nutqidagi noaniqlik, muloyimlik, implikatura va hissiy-tasviriy bo'yoqdorlik shu genderni xos kommunikativ zaiflikdir. Erkaklar nutqi, aksincha, me'yor belgisi hisoblanadi. Dominantlik nazariyasi shu qarashni biroz to'ldirib, ayollar nutqidagi chegaralanganlikni jamiyatdagi gender tengsizligi mahsuli sifatida izohlaydi. Dale Spender va boshqa feministik tadqiqotchilar erkaklarning kommunikativ ustun mavqei til orqali mustahkamlanishini ta'kidlaydilar. Demak, defitsit nazariyasi ayollar nutqini "zaif" deb baholasa, dominantlik nazariyasi bu "zaiflik"ni ijtimoiy bosim va patriarxal qarashlar bilan asoslaydi.

Yuqoridagi ikki yondashuvdan farq qiluvchi farqlilik nazariyasi nutqdagi o'ziga xoslikni madaniyatlar turli-tumanligi bilan izohlaydi. Postmodern yondashuv vakillari gender mazmunini kommunikativ jarayonda shakllanuvchi ijtimoiy hodisa deb qarar ekan, bunda "erkak nutqi" yoki "ayol nutqi" kabi qat'iy kategoriyalar nisbiy deb baholanadi. Quyida har bir nazariyani asoslovchi tavsifiy izohlarni shakllantiramiz.

Ingliz tilshunosligida gender masalasi yuzaga chiqa boshlagan o'tgan asrning birinchi yarmida olimlar erkak va ayol nutqi o'rtasidagi fonetik hamda leksik tafovutlarni qayd etishdi. Tahlillar xulosasi biologik jins bilan bog'liq qarashlarni mustahkamlashga xizmat qildi. Bunda ayollar nutqi "yumshoq" deb tavsiflandi, erkak nutqining "qat'iy" va "rasmiiy" xarakterga egaligi ta'kidlandi, ikki jinsning talaffuz va ohang tafovutlari belgilandi. Defitsit nazariyasiga ko'ra, gender xoslanishning nutqiy ifodasi lisoniy sathlarda quyidagicha o'z aksini topadi:

3-jadval

Defitsit nazariyasiga ko'ra erkaklar va ayollar nutqining tafovutlari

FONETIK SATH	Ayollar nutqida yuqori tembr, ohang ko'tarilishi, unlilar cho'zilishi, cho'zilgan urg'u hamda vositalar kuzatiladi. Darak gaplarda ham savol ohangi qo'llanadi.	<i>"It's beautiful↑", "Really↑?"; "Soooo nice!", "I loooove it!"</i>
	<b>Erkaklar</b> nutqida ovoz tembri pastroq, intonatsiya qisqa va qat'iy, so'zlarda unlilar cho'ziq talaffuz qilinadi.	<i>"It is beautiful↓", "Enough↓" "Good.", "Fine."</i>

LEKSIK SATH	<b>Ayollar</b> nutqida yumshatuvchi, kichraytiruvchi shakllardagi leksik birliklar, obrazli va taqlid leksikasi, sifatlovchi leksemalar faol qo'llanadi.	<i>lovely, adorable, cute, wonderful, sweet, maybe, perhaps, I think, I suppose, kind of, so nice, oh dear</i>
	<b>Erkaklar</b> o'z nutqlarida qat'iylik, aniqlik va ishonchni ifodalovchi leksik birliklarni faol qo'llaydilar.	<i>definitely, certainly, exactly, absolutely, of course, obviously, do it now, no doubt</i>
SINTAKTIK SATH	<b>Ayollar</b> nutqida modal qurilmalar, yumshatuvchi sintaktik birliklar, murakkab gap qurilmalari, sodda yoyiq gaplar qo'llanadi.	<i>"You'll come, won't you?", "Could you help me, please?", "I was wondering if you..."</i>
	<b>Erkaklar</b> nutqida sodda yig'iq gap qurilmalari ustunlik qiladi. Buyruq va keskin darak gaplar faol ishlatiladi.	<i>"Come tomorrow.", "Help me with this.", "Do it now.", "We need another plan.", "Finish the work today."</i>

Nutqning gender xoslanishini defitsit nazariyasi asosida tavsiflash gender lingvistikasining shakllanishida tamal toshi bo'ldi. Nazariya asoschisi R. Lakoff ayollar nutqida noaniqlik va qat'iyat yetishmasligini ta'kidlab, buni yuqoridagi fonetik, leksik va sintaktik omillar asosida dalillaydi. Ayollar nutqida hissiy-tasviriylik, erkaklar nutqida esa aniqlik hamda qat'iyat mavjud degan xulosa gender tilshunosligida farqlilik va dominantlik tamoyillarining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Defitsit nazariyasi asosan ayollarning nutqiy "nuqsonlari"ga urg'u berish bilan erkak nutqini me'yoriy maqomga chiqarib qo'ydi. Ya'ni, erkaklar nutqi muayyan me'yor ko'rsatkichi, ayol nutqi esa shu me'yordan og'ish sifatida tavsiflandi. Ushbu nazariya ayollar nutqidagi muayyan chegaralanganlik, yumshoqlik, noaniqlik va ehtiyotkorlik ayollar xarakteri bilan emas, balki ijtimoiy bosim hamda jamiyatdagi gender rollari bilan bog'liq stereotiplar bilan shartlanishini e'tirof etmagan [1,4]. Shunday bo'lsa-da, defitsit nazariyasi gender va til munosabatlarini ilk bor muhokamaga olib chiqqani, nutqdagi gender tafovutlarini tizimli tavsiflagani hamda gender lingvistikasining keyingi rivojiga zamin yaratgani bilan ahamiyat kasb etgan, deya olamiz.

Yurtimizda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga chiqqani ma'lum. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 2-sentyabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni bu masalaning qonunchilik bilan mustahkamlanganini ko'rsatadi. Ayni damda ayollarga keng imkoniyatlar yaratish, ularning kasbiy-professional kamolotiga urg'u berish, iqtisodiy mustaqilligiga zamin yaratish hamda ijtimoiy realizatsiyasiga ko'maklashish dolzarb vazifalarga aylangan. Shu aspektda o'zbek tilshunosligi nutqning gender xoslanishi, lisoniy gender hodisasi kabi masalalarga e'tibor qaratmoqda.

Genderga oid tadqiqotlar milliy tilshunoslikning chog'ishtirma va qiyosiy yo'nalishlarida ommalashdi. Xususan, G. Ergashevaning "Ingliz va o'zbek tillari frazeologizmlari va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi", "Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картинах мира", M.A. Abdurahobovanning "Ingliz, italyan va o'zbek folklor matnlarida genderning til vositalarida ifodalanishi", I. Tuxtasinovning "Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков)", N. Nasrullayevaning "Ingliz tili frazeologik birliklari semantikasidagi gender konsepsiyasi", H. Ismoilovning "Xushmuomalalik kategoriyasi va hurmat konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi gender xususiyatlari", T. Alimovning "Badiiy tarjimada gender tadqiqotlari va lingvistik yo'nalishlar" kabi ilmiy tadqiqotlari ushbu hodisani turli tizimli tillar kesimida tavsiflab, gender mazmunini ifodalovchi lisoniy birliklarni aniqlash kabi vazifalarni bajardi, deya olamiz [5,9].

Milliy tilshunoslikda gender tushunchasi tadqiqi uning nazariy asoslarini yoritish bilan boshlandi. Bu borada Sh. Gulyamovanning "Gender tushunchasi va uning lingvistikada tutgan o'rni", M. Qurbonova va S. Boymirzayevaning "Tilshunoslikda gender tadqiqotlari", M. Qurbonova va N. Rajabovanning "Diskursning gender xususiyatlari", G. Yusupovanning "Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari" mavzusidagi tadqiqotlari ushbu yo'nalishning rivojlanish bosqichlari, genderning grammatik va leksik ifodalanishi masalalariga e'tibor qaratdi. Gender mazmunining lisoniy ifodalanishi Sh. Gulyamovanning "O'zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari", G. Yusupovanning "Gender

aspektining o‘zbek va nemis tillaridagi ismlarda aks etishi”, G. Ergashevaning “Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizmlari va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi”, H. Ismoilovanning “Xushmuomalalik kategoriyasi va hurmat konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi gender xususiyatlari” ishlarida asosiy tadqiq obyekti bo‘ldi [10, 17].

Ushbu masalalar tadqiqi amalda nutq madaniyati va muloqot etikasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayol va erkak nutqida murojaat shakllari, xushmuomalalik, buyruq, iltimos, baholash, kinoya, sukut, hissiylik kabi vositalarning qo‘llanishi farqli bo‘lishi muqarrar. Bu farqlarni aniqlash va tizimlashtirish oilaviy hamda ish joyidagi muloqot, ta‘lim jarayoni, rasmiy nutq va media muloqotda samarali, hurmatga asoslangan, kamsitishdan xoli nutq me‘yorlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va badiiy matnlarda erkak va ayol obrazlari qanday talqin qilinishini o‘rganish orqali ta‘lim-tarbiyada gender rollari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqish mumkin.

Tizimli ilmiy xulosalar OAV, reklama va internet diskursida ham manipulyativ yoki kamsituvchi ifodalarni aniqlash imkonini beradi. Reklama matnlarida ayolning faqat go‘zallik, tashqi ko‘rinish, oshxona yoki uy ishlari bilan bog‘lanishi, erkakning esa kuch, pul, hokimiyat kontekstida gavdalanishi salbiy gender stereotiplarini mustahkamlashi mumkin. Bunday tadqiqotlar ommaviy axborot vositalari va reklama tilida ijtimoiy mas‘uliyatli, neytral va hurmatli ifodalarni shakllantirishga yordam beradi.

Leksikografik talqin hamda tarjima ishlari sifatini oshirish, muvozanatli terminologiyani shakllantirish ham aynan gender hodisasi tadqiqining nazariy xulosalari va amaliy tavsiyalariga tayanadi. Til ijtimoiy hodisa bo‘lib, u ijtimoiy tenglik va huquqiy madaniyatni ta‘minlashda vositachi vazifasini bajaradi. Nutqda ayol yoki erkakni kamsituvchi, stereotiplashtiruvchi yoki cheklovchi ma‘noga ega birliklar qo‘llanishini bartaraf etish uchun rasmiy hujjatlar, ommaviy chiqishlar, ta‘limiy matnlar va media matnlarni izchil tahlil qilish, tahlil obyektini muayyan ma‘no bilan chegaralash zarur.

Gender mazmuni ulkan va serqirra, uning nutqiy voqelanishi ham ayni tabiatga ega. Shu bois tadqiqotning diskurs chegarasi sifatida ruhiy holat ma‘nosini tanlaymiz. Ruhiy holat ma‘nosining genderga xos ifodalari, erkak va ayol nutqida ruhiy holatning aks etish xususiyatlarini aniqlash jamiyatdagi genderlarni diskriminatsiya qiluvchi qarashlarga munosabatni yuzaga chiqarish, stereotiplarni tanqidiy baholash, ijtimoiy muloqotni madaniy, muvozanatli va insonparvar ohangda shakllantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Lakoff R. Language and Woman’s Place. New York: Harper & Row, 1975. 83 p.
2. Jespersen O. Language: Its Nature, Development and Origin. London: George Allen & Unwin, 1922. 448 p.
3. Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. London: Longman, 1993. 228 p.
4. Musayeva F. O‘zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref. Toshkent, 2019. 51 b.
5. Gulyamova F. O‘zbek tili evfemizlarining gender xususiyatlari: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref. Buxoro, 2020. 75 b.
6. Ergasheva G. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi: diss. Toshkent, 2011.
7. Abduvaxobova M. Ingliz, italyan va o‘zbek folklor matnlarida genderning til vositalarida ifodalanishi: diss. Toshkent, 2019.
8. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: filol. fan. nomz. diss. Samarqand, 1993.
9. Saidxonov M. Noverbal vositalar va o‘zbek tilida ularning ifodalanishi: filol. fan. nomz. diss. Toshkent, 1993.
10. Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari // Foreign Languages in Uzbekistan. 2023.
11. Gender kun tartibida: gender bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, «Gender va taraqqiyot» byurosi, 2000.